



## NEMIS TILIDA ILOVA KONSTRUKSIYA STRUKTUR XUSUSIYATLARINING O'RGANILISHIGA DOIR MULOHAZALAR

**M.Hamrayeva**

*SamDCHTI magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ilova konstruksiyaning matn doirasida bajarib keladigan struktur xususiyatlari badiiy matndan olingan misollar doirasida tahlil qilingan hamda tilshunos olimlar tomonidan ilova konstruksiyalarning strukturaviy xususiyatiga doir ayrim mulohazalar keltirilgan va ushbu mulohazalarga muallifning nuqtai nazari ifodalangan.

**Kalit so'zlar:** sintaktik aloqa, ilova hodisasi, ilovali element, ilova konstruksiya, struktur o'ziga xoslik, bog'lanish, ergashish, ekspressivlik, funksiya.

So'nggi paytlarda tilshunoslikda sintaktik aloqaning bog'lanish va ergashish kabi turlari bilan bir qatorda bir-biridan pauza bilan ajratilgan gaplarni o'z ichiga oluvchi murakkab shakllanishlar ham ajratilmoqda. Olimlar tilda yangi sintaktik hodisa – ilova hodisasini qayd etmoqdalar. Ilova konstruksiyalar muammosi asosan rus tilshunosligida ko'proq o'rganilib, bu muammo Yevropa xalqlari tillari misolida yetarlicha o'rganilmaganligini ko'rish mumkin.

Ilova hodisaini o'rganish muammosi va u bilan bog'liq masalalar rus tilshunosligida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ilgari surilgan. A.A.Potebnya asarlarida so'zlarning tartibini, assotsiativ aloqalarni qayd etadi [12; 286-290], D.N. Ovsyaniko-Kulikovskiy ilovada semantik munosabatlarni, intonatsion xususiyatlarni – pauza, birlashmalarni ajratib ko'rsatdi [9; 254], A.M. Peshkovskiy nafaqat teng bog'lanishni, balki ajratuvchi pauzadan keyin tobe bog'lanishlarni ham ko'rib chiqadi va ularning "bog'anish" va "ergashish" tushunchalaridan farqini qayd etdi [10; 257].

Tilshunoslikda ilova hodisasini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ilova konstruksiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflashning turli jihatlari, jumladan, bog'lovchilar bilan belgilanadigan bog'lanishning o'ziga xos xususiyati [14; 5; 7; 4; 2], ilova hodisasida tinish belgilarining rolini aniqlash [11; 3], ilova konstruksiyalarning ekspressivlik darajasini aniqlash [1], ilova konstruksiyaning kommunikativ funksiyalarini o'rganish [13; 8; 6]ga alohida e'tibor qaratilgan.

L.V.Shcherba va V.V.Vinogradovning ilova hodisasiga bag'ishlangan, teng bog'lovchili qo'shma gaplar bilan belgilanadigan tadqiqotlari ushbu sohadagi keyingi ilmiy izlanishlar uchun asos bo'ldi [14; 63-84; 5; 254-294]. Natijada ma'lum bir lingvistik konsepsiya ishlab chiqildi. Bu esa ilovali bog'lanish va ilova munosabatlari so'zlovchining ongida asosiy fikr bilan bir vaqtda emas, balki u allaqachon ifodalanganidan keyingina yuzaga keladigan qo'shimcha ma'lumotlarning asosiy gapga qo'shilishi bilan tavsiflanadi.





Xarakterli jihati shundaki, biz ushbu asarlarda ilova muammosiga doir bir xil yondashuvni uchratamiz: Ilova konstruksiyaning tuzilishi o'rganiladi, ulardagi qo'shma gaplarning ma'no va vazifalari, asosiy ifoda va ilovali element qismlarida so'z tartibining o'rnini, ilova konstruksiya tuzilishining struktur xususiyatlari va boshqalar tahlil qilinadi.

Tilshunoslikda ilova konstruksiyalar asosiy ifodaga muallif uchun muhim bo'lgan kommunikativ tusni beradi, ularsiz olingan ma'lumotni to'liq bo'lmay, xabarni aniq idrok etish mumkin emas.

Ilova konstruksiyalar sintagmatik bog'lanish tamoyillaridan chetga chiqish, komponentni maxsus guruhga ajratish va sintaktik munosabatlarning bo'linishiga asoslangan ekspressiv sintaksis usuli sifatida qaraladi.

Ilova konstruksiyalar muallifning kommunikativ niyatiga mos ravishda quriladi, informativ segmentatsiya esa biriktirilgan elementni faollashtirishga, mantiqiy tanlashga yordam beradi, bu esa ilova konstruksiyada qo'shimcha semantik-sintaktik ma'nolar va munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Ilova konstruksiyalar sintaktik hodisa sifatida ko'p jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, bu muammoga bag'ishlangan lingvistik asarlarda ilova konstruksiyaning tarkibiy, semantik va funksional turlarining barcha xususiyatlari bo'yicha keng qamrovli tasnifi mavjud emas, bu esa ilova hodisasi bilan bog'liq strukturaviy-semantik masalalar bilan birgalikda funksional o'ziga xosligini o'rganishning asosiy sabablaridan biridir.

Ilova konstruksiyaga nisbatan bildirilayotgan bunday munosabatlar, uning stilistik hodisa ekanligidan dalolat beradi. Lekin, ilova konstruksiyalarning lingvistik mohiyatini izohlashda albatta ularning strukturaviy guruhlarini ham e'tiborga olish ayni muddao bo'ladi.

Ilova konstruksiyaning strukturaviy turlarini va xususiyatlarini o'rganishga juda ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari, maqolalar bag'ishlangan. Hozirgacha mavjud bo'lgan va turli til materiallari asosida yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ilova konstruksiyaning barcha strukturaviy xususiyatlari to'liqligicha va atroflicha o'rganilgan, deb bo'lmaydi. Chunki bizga ma'lum bo'lgan va ilova konstruksiyaning strukturaviy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy-tadqiqot ishlarida ham bu mavzuning ayrim sohalari izlanish doirasidan yoki izlanuvchilarning diqqat-e'tiboridan chetda qolib ketmoqda.

Ilova konstruksiyaning strukturaviy va ma'no xususiyatlarining qanday bo'lishligi ularni tashkil etuvchi komponentlarning grammatik jihatdan ifodalanishiga ham bog'liq bo'ladi. Bu jarayonda bu kabi sintaktik birliklarni tashkil etuvchi komponentlar orasida mavjud bo'lgan sintaktik aloqalarning turini va xarakterini ham e'tiborga olish zarur.

Ilova konstruksiya struktur jihatdan sintaksisning ikki qismdan tarkib topuvchi (binar) yopiq kommunikativ-konstruktiv birligi bo'lib, uning asosiy vazifasi muallifning niyatlarini amalga oshirish usuli sifatida nutqning asosiy birliklariga





boshqa xarakterdagi qo'shimcha xabarlarini kiritishdir. Ilova konstruksiya – bu asosiy qismdan va ilovali elementdan tashkil topgan ikki qismdan iborat birlikdir.

S.E.Kryuchkov ilova konstruksiyalarning asosiy strukturaviy turlari va ma'nolarini tavsiflab, tadqiqotchilar e'tiborini sintaktik bog'lanishning sozlovchi va tobelikdan farqli o'ziga xos turi sifatida ilova konstruksiyalarning ritmik va ohang xususiyatlariga, shuningdek, so'z tartibining ilovali element hosil qilishdagi rolga qaratgan [7; 400].

An'anaviy strukturaviy-semantik yondashuv doirasida olib borilgan ilova konstruksiyalarni tahlil qilish maxsus bog'lovchi ma'noni ifodalashga xizmat qiladigan ilova konstruksiya modelini asoslashga yordam berdi. Ilova konstruksiyalar katta imkoniyatlarga ega: ular ma'nolarning juda nozik semantik va ekspressiv tuslarini yetkazishga qodir, ularning ba'zilari muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, boshqalari qo'shimcha tafsilotlar xususiyatiga ega bo'ladi, yana birlari esa muallifning niyatiga muvofiq asosiy gap qismlarining ma'nosini kuchaytiradi yoki aniqlaydi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ilova konstruksiyada so'zlovchining ikkinchi fikri birinchisining ifodasini tugatgan onda yoki tugatmasdan oldin ongda sodir bo'ladi.

Keyingi vaqtlarda ilova hodisasini o'rganishga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Natijada ilmiy izlanishlarning tekshirish obyekti qilib ilova qurilmaning alohida-alohida strukturaviy guruhlarini tanlandi. Ilmiy izlanishlarga nisbatdan qo'llangan bunday metodlar ijobiy natijaga olib keldi.

Ilova konstruksiyaning strukturaviy xususiyati ega va kesim funksiyasida keluvchi komponentlarning uni tashkil etuvchi gaplarda ham aynan ushbu funktsiyani bajarishi bilan harakterlanadi. Bunday holatlarda ilova konstruksiyaning har bir strukturaviy guruhlarini o'zlariga xos bo'lgan xususiyatlarini saqlab qolishga erishadilar va alohida olingan ilmiy-tadqiqot ishlarining obyektlariga aylanishlari mumkin.

Xulosa qilganda, ilova konstruksiyalarni strukturaviy guruhlariga ajratishda u yoki bu til materiali doirasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda qo'llangan yondashuvlar tatbiq qilinsa, ko'plab qulayliklarni tug'dirishi mumkin. Chunki, ilova konstruksiyaning tizma va parallel bog'lanishlarga asoslangan strukturaviy guruhlarini tahlil qilish uning strukturaviy guruhini ham tahlil qilishga imkon yaratadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Акимова Г.Н. Развитие синтаксических конструкций в современном русском литературном языке. Динамика структуры современного русского языка: сб. науч.ст. -Л.: Изд-во ЛГУ, 1982. -С.85-121.
2. Бурак Л.И. Присоединение и его дифференциальные признаки. Русский язык. -Минск, 1988. -Вып.8.
3. Валгина Н.С. Современный русский язык: Синтаксис: учебник. 4-е изд., испр. -М.: Высш. шк., 2003. -416 с.





4. Величук А.П. О специфике присоединительной связи в современном русском языке (сочинение и присоединение: автореф. дисс. канд. филол. наук. - М., 1961. - 16 с.
5. Виноградов В.В. Основные вопросы синтаксиса предложения. Избр. тр. Исследования по русской грамматике. -М.: Наука, 1975. -С. 254-294.
6. Жданова О.П. О месте присоединительной связи в ряду синтаксических отношений. Синтаксис и пунктуация. -Уфа, 1975. -С. 145.
7. Крючков С.Е. О присоединительных связях в современном русском языке. Вопросы синтаксиса современного русского языка. Учпедгиз. -М., 1950. -400 с.
8. Лозанович Ф. Т. Языковые особенности газетного очерка как жанра публицистики (Стилистико-синтаксические функции присоединительных конструкций: автореф. дисс. канд. филол. наук. -Ростов н/Д., 2000. -19 с.
9. Овсяннико-Куликовский Д.Н. Синтаксис русского языка. -СПб., 1912.-301 с.
10. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. -М.: Учпедгиз, 1956. -511с.
11. Попова И.А. Значение и функции союза и в древнерусском языке. Научная сессия 1945 г. Ленинградского гос. университета: тез. докл. по секции филологических наук. Л., 1945. - С. 46-50.
12. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. -М. : Учпедгиз, 1905. - Т.4. - С.286 -290.
13. Рогова К.А. Синтаксические особенности публицистической речи. -Л.: Изд-во ЛГУ, 1975. -71 с.
14. Щерба Л.В. О частях речи в русском языке: избр. работы по русскому языку. -М.: Учпедгиз, 1957. -С.63-84.

